



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i05.034>

UDK: 94(100)“1914/1922” (575):341.341-052

ORCID: 0009-0000-6661-8653

TURKISTONDA HARBIY ASIRLARNING HUQUQIY MAQOMI VA HARBIY LAGER TARTIBOTI (1914-1918)

Tojiboyev Jaxongir Ilxomovich

Namangan davlat universiteti doktoranti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

j.i.tojiboev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya imperiyasi, xususan Turkiston o‘lkasida saqlangan harbiy asirlarning huquqiy maqomi va harbiy lager tartiboti masalalari tadqiq etiladi. Asosiy e‘tibor 1899 va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalari hamda Rossiya Harbiy vazirligi tomonidan 1914-yilda tasdiqlangan “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizom asosida harbiy asirlarga belgilangan huquqiy kafolatlar va ularning amaliyotdagi ijrosini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada harbiy asirlarni ro‘yxatga olish, ularning shaxsiy buyumlari, zobitlar va oddiy askarlar maqomidagi farqlar, lager ichki intizomi, milliy hamda diniy omillarga qarab munosabatning o‘zgarishi, slavyan asirlariga nisbatan imtiyozli siyosat va slavyan bo‘lmagan asirlarning og‘ir sharoitlarda saqlanishi kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, Turkiston harbiy lagerlarida diniy marosimlar, dafn amaliyoti, kiyim-kechak tartibi va 1917-yildan keyin lager rejimining yumshashi jarayonlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq normalari bilan imperiya manfaatlariga asoslangan amaliy siyosat o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Birinchi jahon urushi, Rossiya imperiyasi, Turkiston, harbiy asirlar, Gaaga konvensiyasi, harbiy lager, huquqiy maqom, lager tartiboti, milliy tabaqalashtirish, diniy erkinlik.

Аннотация. В статье исследуются правовой статус военнопленных и режим военных лагерей в Российской империи, в частности в Туркестанском крае, в годы Первой мировой войны. Основное внимание уделяется анализу правовых гарантий, закреплённых в Гаагских конвенциях 1899 и 1907 гг., а также в утверждённом Военным министерством России в 1914 г. «Положении о военнопленных», и их практической реализации. В статье

рассматриваются вопросы регистрации военнопленных, сохранения личных вещей, различий в статусе офицеров и нижних чинов, внутренней лагерной дисциплины, влияния национального и религиозного факторов на отношение к пленным, привилегированного положения славянских военнопленных и тяжёлых условий содержания неславянских групп. Кроме того, анализируются религиозные обряды, практика погребения, правила ношения одежды и смягчение лагерного режима после революционных событий 1917 г. Результаты исследования показывают наличие существенного разрыва между нормами международного права и практической политикой, определявшейся интересами Российской империи.

Ключевые слова: Первая мировая война, Российская империя, Туркестан, военнопленные, Гаагская конвенция, военный лагерь, правовой статус, лагерный режим, национальная дифференциация, религиозная свобода.

Annotation. This article examines the legal status of prisoners of war and the regime of military camps in the Russian Empire, particularly in Turkestan, during the First World War. The study focuses on the legal guarantees established by the Hague Conventions of 1899 and 1907 and by the 1914 Russian “Regulations on Prisoners of War”, as well as on the practical implementation of these norms. The article analyzes the registration of prisoners of war, the treatment of their personal belongings, differences between officers and lower ranks, internal camp discipline, the influence of ethnic and religious factors on the treatment of prisoners, the privileged position of Slavic prisoners, and the harsher conditions faced by non-Slavic groups. It also discusses religious ceremonies, burial practices, clothing regulations, and the relaxation of camp restrictions after the revolutionary events of 1917. The findings demonstrate a significant discrepancy between international legal norms and practical policies shaped by the interests of the Russian Empire.

Keywords: First World War, Russian Empire, Turkestan, prisoners of war, Hague Convention, military camp, legal status, camp regime, ethnic differentiation, religious freedom.

KIRISH. Birinchi jahon urushi yillarida millionlab harbiylarning asirlikka tushishi urushayotgan davlatlar oldiga nafaqat harbiy, balki huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni ham qo‘ydi. Harbiy asirlar masalasi xalqaro huquqda 1899 va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalari orqali tartibga solingan bo‘lsa-da, urush sharoitida ushbu normalarning amaliyotga tatbiq etilishi har doim ham bir xil kechmadi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi hududiga, jumladan Turkiston o‘lkasiga joylashtirilgan harbiy asirlarning ahvoli xalqaro huquqiy me‘yorlar bilan imperiyaning ichki siyosiy manfaatlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni namoyon etadi.

Turkiston o‘lkasi Birinchi jahon urushi frontlaridan uzoqda joylashgan bo‘lsa-da, urushning oqibatlari bu hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. O‘lka harbiy asirlarni joylashtirish, ularni mehnatga jalb qilish, nazorat ostida saqlash va mahalliy muhitga

moslashtirish maydonlaridan biriga aylandi. Harbiy asirlarning huquqiy maqomi rasmiy jihatdan Gaaga konvensiyasi va Rossiya Harbiy vazirligining 1914-yilgi “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizomi asosida belgilangan bo‘lsa-da, amalda ularning turmush sharoiti, mehnatga jalb etilishi, harakatlanish erkinligi va ijtimoiy maqomi turlicha bo‘lgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Turkistondagi harbiy asirlar masalasi uzoq vaqt davomida umumrossiya yoki harbiy-siyosiy tarix doirasida ikkinchi darajali masala sifatida yoritilib keldi. Holbuki, harbiy asirlarning huquqiy maqomi, lager tartiboti, milliy va diniy omillar asosida tabaqalashtirilishi, mahalliy jamiyat bilan aloqalari hamda 1917-yilgi inqiloblardan keyingi huquqiy o‘zgarishlar Turkistonning urush davri ijtimoiy tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Birinchi jahon urushi yillarida Turkiston o‘lkasidagi harbiy asirlarning huquqiy maqomi va lager tartibotini xalqaro huquqiy me‘yorlar, Rossiya imperiyasi qonunchiligi hamda mahalliy amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikda tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, maqolada harbiy asirlarni ro‘yxatga olish tartibi, lager ichki intizomi, zobitlar va oddiy askarlar o‘rtasidagi farqlar, slavyan va slavyan bo‘lmagan asirlarga nisbatan siyosat, diniy marosimlar, kiyim-kechak talablari va 1917-yildan keyingi o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Birinchi jahon urushi davridagi harbiy asirlar masalasi xalqaro va rus tarixshunosligida muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, Turkiston o‘lkasi misolida bu mavzu hali ham alohida kompleks yondashuvni talab etadi. Mavjud adabiyotlarda asosan harbiy asirlarning umumiy huquqiy maqomi, Rossiya imperiyasidagi joylashtirish tizimi, mehnatga jalb qilinishi va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki yoritilgan. Biroq Turkiston harbiy lagerlaridagi kundalik tartibot, mahalliy sharoit, diniy marosimlar, etnik tabaqalashtirish va 1917-yildan keyingi erkinlashuv jarayonlari ko‘pincha bilvosita tahlil qilingan.

Mavzuning normativ-huquqiy asosini 1899 va 1907-yillardagi Gaaga konvensiyalari hamda Rossiya Harbiy vazirligi tomonidan 1914-yilda tasdiqlangan “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizom tashkil etadi. Ushbu hujjatlar harbiy asirlarning rasmiy huquqiy maqomini, ularga munosabat tamoyillarini, shaxsiy buyumlar, mehnat, diniy erkinlik va davlatlararo xabardorlik masalalarini aniqlash imkonini beradi [8; 9]. Shu bilan birga, maqolada ko‘rsatilganidek, xalqaro huquqiy talablar va Rossiya imperiyasining amaliy siyosati o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo‘lgan.

S.N. Vasilyeva, M.N. Kutyavina va I.Yu. Mankovskiy kabi tadqiqotchilarning ishlari Rossiya hududidagi harbiy asirlarning huquqiy maqomi va boshqaruv tizimini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega [14; 21]. I.V. Kryuchkov, I.I. Shleyxer va S. Bazanovning tadqiqotlari esa asirlarning milliy tarkibi, joylashtirilishi va turli millatlarga mansub harbiy asirlarga nisbatan siyosiy munosabat masalalarini ochib beradi [10; 20; 25]. Ayniqsa, slavyan asirlariga nisbatan

imtiyozli siyosat Rossiya imperiyasining harbiy asirlar masalasiga faqat huquqiy emas, balki strategik va mafkuraviy yondashganini ko‘rsatadi.

Turkiston o‘lkasidagi harbiy asirlar masalasini yoritishda Yu.V. Kireyeva va T.V. Kotyukovaning ishlari alohida o‘rin tutadi. Kireyeva Turkiston harbiy okrugi hududida nemis va avstro-venger harbiy asirlarining saqlanish sharoitlarini o‘rgangan bo‘lsa, Kotyukova avstro-venger va german asirlarining Turkistondagi kundalik hayoti, iqlimga moslashuvi, ta‘minot muammolari va mahalliy sharoit bilan bog‘liq jihatlarni yoritgan [18; 19]. F.M. Beyli, Sh. Gann, Fritz Willfort va Elsa Brändström kabi mualliflarning esdaliklari esa rasmiy hujjatlarda to‘liq aks etmaydigan kundalik hayot, lager muhitidagi ruhiy holat, rus zobitlari bilan munosabat, diniy marosimlar, shahar muhitida asirlarning ko‘rinishi va 1917-yildan keyingi o‘zgarishlarni yoritishda muhim manba hisoblanadi [11; 13; 15; 29].

Tadqiqotni tayyorlashda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayangan holda tarixiy-huquqiy, qiyosiy-tahliliy, manbashunoslik, tarixiy-kontekstual va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-huquqiy metod orqali Gaaga konvensiyalari va 1914-yilgi “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan normalar tahlil qilindi. Qiyosiy-tahliliy metod xalqaro huquqiy me‘yorlar bilan Rossiya imperiyasi va Turkiston o‘lkasidagi amaliy holatni solishtirishga imkon berdi. Manbashunoslik metodi arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy manbalar, esdaliklar, kundaliklar va ilmiy adabiyotlarni tanqidiy o‘rganishda qo‘llanildi. Tarixiy-kontekstual yondashuv esa harbiy asirlar masalasini Birinchi jahon urushi, Rossiya imperiyasining milliy siyosati, Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va 1917-yilgi inqilobiy jarayonlar bilan bog‘liq holda talqin qilishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Harbiy asirlarning huquqiy maqomi Birinchi jahon urushi boshlanishidan oldin xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan edi. Ushbu masala bo‘yicha asosiy dasturulamalar 1899-yilda qabul qilingan va 1907-yilgi Gaaga konferensiyalarida qayta ko‘rib chiqilgan “Quruqlikdagi urush qonunlari va qoidalari to‘g‘risida”gi konvensiya hisoblangan [9, 2]. Harbiy asirlar uchun huquqiy asos bo‘lgan rus manbasi esa Rossiya Harbiy vazirligi tomonidan 1914-yil 7(20)- oktyabrda tasdiqlangan “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizom edi. Bu Nizom Nikolay II tomonidan o‘z paytida 1904-yil 13-maydagi farmoyishi bilan qabul qilingan bir qator prinsiplarga ko‘ra eskirgan “Urush asirlari to‘g‘risida”gi vaqtinchalik nizom o‘rnini bosdi [21, 152–157]. 1914-yilgi Nizom rasman xalqaro maqomiga ko‘ra Gaaga konvensiya shartlariga to‘laqonli javob bersada, ayrim moddalar Rossiya imperiyasi manfaatlaridan kelib chiqib tuzilgandi. Nafaqat “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizom, balki o‘sha davrdagi boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarning aksariyati ham Gaaga konvensiyaga nisbatan mukammal ko‘rinishda tuzib chiqilmagan. Lekin shunday bo‘lsa-da, harbiy asirlarning haq-huquqlari, shart-sharoitlari va ularning ijtimoiy ahvoli haqida huquqiy asos yaratilgandi.

Yuqoridagi ikki hujjatga ko‘ra, urushayotgan tomonlarning qurolli kuchlari tomonidan “dushman” askarlari xoh urushda qatnashsin, xoh jangovar harakatlarda ishtirok etmasin, qo‘lga

olinganda harbiy asir hisoblanganlar [8, 3–4]. Urush harakatlari ro‘y berayotgan hududlarda muxbirlik qilayotgan ommaviy axborot vositalari xodimlari va shartnoma asosida urushga kirgan boshqa davlat vakillari ham asirlikka olinib, harbiy lagerlarga jo‘natilishi mumkin edi. Askarlar va zobitlar tutqunlikka tushganlarida ularning qurollari, otlari va harbiy hujjatlari olib qo‘yilishi va ularga tegishli bo‘lgan boshqa barcha shaxsiy buyumlari qaytarib berilishi belgilab qo‘yilgan [9, 1]. Ushbu ikki Nizom bandlaridan kelib chiqib, Rossiya imperiyasi bo‘ylab harbiy lagerlarga joylashtirilgan asirlarga harbiy hujjatlari va qurollaridan tashqari barcha shaxsiy buyumlari va kiyimlari qaytarib berilgan [20, 9].

Rossiya imperiyasidagi barcha harbiy lagerlar Rossiya armiyasi Bosh shtab Bosh boshqarmasiga bo‘ysungan. Harbiy asirlar masalasi bilan dastlab, BShBBning Evakuatsiya boshqarmasi 7-bo‘limi shug‘ullangan. 1916-yilning kuziga kelib, BShBB harbiy asirlar muassasalari bo‘yicha alohida Evakuatsiya bo‘limini tashkil qildi. Shu asnoda, barcha harbiy okruglarda BShBBga hisob beruvchi harbiy asirlar masalasi bo‘yicha bo‘limlar tashkil etila boshlandi [14, 87]. Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligi apparati Harbiy ishlar xalq komissarligi tarkibida harbiy asirlar ishlari bo‘yicha byuro tuzildi. 1918-yil aprelidan boshlab bu tashkilot harbiy asirlar va qochoqlar ishlari bo‘yicha markaziy qo‘mita (Sentroplenbej) deb atala boshlandi [26, 4].

Asirlikka tushgan harbiylarning ma‘lumotlari 3 xil kartochkalarga qayd qilib borilgan: ikkita muqovasi qattiq va bitta yumshoq kartochkalar [6, 5]. Harbiy asirning shaxsiy kartochkasida uning ism-sharifi, tug‘ilgan yili, oilaviy holati, oila a‘zolari soni, unvoni, millati, fuqaroligi, o‘z yurtidagi doimiy yashash joyi, harbiy asirning imzosi va qayd kartochkasini qachon to‘ldirilganligi kabi ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan [1, 88]. Harbiy asir so‘roq qilinayotganda o‘z ism-sharifini va unvoni ro‘y-rost aytishi kerak edi. Agarda yolg‘on gapirgani aniqlanadigan bo‘lsa, unga berilgan imtiyozlardan mosuvo etilgan [8, 3–4].

Xalqaro kelishuvlarga binoan, mahbuslar rus harbiylari kabi huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi kerak edi. “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra, asirlarga o‘z vatanlarida qanday munosabat qilingan bo‘lsa, shunday davom etishi kerakligi rasman ma‘lum qilindi [9, 1]. Lekin “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizomni buzish holatlari harbiy asirlarni joylashtirish boshlangandayoq kuzatila boshlangan. Slavyan harbiy asirlari boshqalardan farqli o‘laroq, katta imtiyozlarga ega edilar. BShBB asirlikdagi harbiylarni etnik kelib chiqishi bo‘yicha saralashni buyurdi: slavyanlar iqlimi qulay bo‘lgan markaziy va janubiy viloyatlarga joylashtirilib, qishloq xo‘jaligi ishlariga jo‘natilishi kerak edi. Slavyan bo‘lmaganlar esa konlarda, qurilishda, yo‘llarni ta‘mirlash ishlariga jalb qilindi. Slavyan zobitlariga dam olish vaqtlarida yakshanba kuni sayr qilish imkoniyat ham berildi [10, 10–16]. Bu esa 1907-yilgi Gaaga konvensiyasi bandlarini qo‘pol ravishda buzish edi. Ko‘pincha mahbuslardan pullarini olib qo‘yilishi, kiyim-kechak taqchilligi, oziq-ovqat muammosi, jismoniy jazo choralari “Harbiy asirlar to‘g‘risida”gi Nizomning V bobida belgilangan me‘yorlarga va xalqaro huquq standartlariga umuman zid edi [21, 152–157].

Gaaga konvensiyasiga muvofiq, harbiy asirlar orasida harbiy iyerarxiyalar mavjud edi, ya'ni qo'lg'a olingan zobitlarga oddiy askarlarga qaraganda ko'proq imtiyozlar berilgan. Chunki ularning unvonlari boshqalarnikidan ustun bo'lgan. Ierarxik harbiy tamoyil tufayli ularning bir lagerdan ikkinchi lagerga transportda yetkazilishi, yashash sharoitlari qolgan asirlarga nisbatan ancha yaxshi bo'lgan. Va eng muhimi, ular oylik maosh olganlar hamda majburiy mehnatdan ozod etilganlar [8, 3–4].

Harbiy asirlarni o'z vatanlariga qarshi kurashda ishtirok etishga majburlash qat'iyan taqiqlangan [8, 4]. Ammo urushning dastlabki yillarida, ayniqsa, 1915-yilda Rossiya hukumati harbiy asirlar orasida norasmiy ajratish siyosatini olib bordi [25, 79]. Bundan ko'zlangan maqsad slavyan millatiga mansublarni Rossiya tomonidan "Uchlar ittifoqi"ga qarshi urushga kirishlariga undash edi. Oxir-oqibat, slavyan asirlari shu yo'l bilan asirlikdan ozod bo'lishlarini va ular uchun mustaqillik Avstriya-Vengriya imperiyasining mag'lubiyati hamda parchalanishi ekanligini tushunib yetdilar. Ruslar tomonidan uyushtirilgan bu kabi ayirmachilik harakatlari harbiy lagerlarda deyarli har kuni slavyanlar va slavyan bo'lmaganlar o'rtasida nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Lager "xo'jayinlari" ataylab kelishmovchilik chiqarish maqsadida chex, serb va boshqa slavyanlarni harbiy lagerlardagi ma'muriy ishlarga jalb qildilar. Venger va avstriyalik mahbuslar uchun bu kamsitish siyosati haqqoniy emas edi. Podsho hukumati harbiy asirlar "mavqe"yini tenglashtirishni xohlamas edilar, aksincha, ular anti-avstro-venger g'oyalarini ilgari surish orqali Avstriya-Vengriya imperiyasini parchalamoqchi bo'lganlar.

Rossiya harbiy vazirligi lagerlarda, tibbiyot muassasalarida, jamoat transportida yurganda, imperiya hududida va boshqa lagerlarga ko'chganda slavyanlarni nemis va vengerlardan alohida joylashtirish choralarini ko'rib kelgan. Aks holda, turli xil millat vakillari o'rtasida ichki nizolarni kelib chiqishi mumkin edi. Slavyan harbiy asirlari Rossiya hukumatidan turli xil imtiyozlarga ega bo'lishgan. Buni Rossiya ichki ishlar vaziri A.N.Xvostov quyidagicha izohlaydi: "Bu urush aslini olganda slavyanlarning nemislarga qarshi urushidir. Tili, madaniyati, e'tiqodi, qoni bilan bizga yaqin bo'lganlarni himoya qilmasak, biz katta gunoh qilgan bo'lardik" [18, 199].

Rossiyaning deyarli barcha hududlarida, xususan, Turkiston harbiy lagerlarida ham bir xil tartibot mavjud edi. Barcha harbiy asirlar rus zobitlaridan iborat otryad rahbarlariga bo'ysungan. Otryad rahbariga yana bir rus zobiti hamda quyi tabaqadagi amaldorlar yordam berganlar. Har qanday vaziyatda ham so'nggi ko'rsatmalar va yo'riqnomalar otryad rahbari tomonidan berilgan hamda uning yordamchilari esa harbiy asirlarning yurish-turishi, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni nazorat qilganlar. Biror no'joya harakat ro'y beradigan bo'lsa, ular o'z vakolati doirasida hal eta olmasalar, albatta, otryad rahbariga murojaat qilganlar. Har bir otryad millatiga qarab ham turli guruhlariga bo'lingan va ularga rusparast bo'lgan slavyan millatiga mansub harbiy asir boshchilik qilgan. U tomonidan amalga oshiriladigan ishlar otryad rahbari buyrug'i asosida yo'lg'a qo'yilgan. Bu kabi guruh sardorlari bo'lgan slavyanlar o'zining boshlig'i bilan harbiy lager kazarmasida alohida holda yashaganlar. Quyi unvondagi harbiy asirlar

TurkHOga qarashli o‘lkaning turli shaharlaridagi frontga ketgan harbiylar istiqomat qilgan kazarmalarga ham joylashtirilgan. Hattoki, 1915-yil mobaynida harbiy asirlar kazarmalar va eski yozgi harbiy lagerlarga jo‘natilibgina qolmay, balki kazarmalar yonidagi hech kim yashamaydigan qurilish obyektlarida ham yashaganlar [13, 31].

Harbiy asirlar lager hududida rus zobitlarini ko‘rganda birinchi bo‘lib salom berishlari belgilab qo‘yilgan. Bu kabi tartiblarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan harbiylar harbiy lager rejimi haqida o‘z esdaliklarida yozib qoldirlanganlar. Masalan, general Manakin lagerlarda o‘rnatilgan tartib-intizomga harbiy asirlar tomonidan qat’iy amal qilinayotganligini mamnuniyat bilan qayd etgan [11, 136]. Harbiy asir Shtefan Gann lager tartiboti haqida yozar ekan, asirga olingan slavyanlarga bo‘lgan munosabatning bir ko‘rinishini tasvirlaydi: “Bu, albatta, yozilmagan tartib-qoida edi. Rus zobitlari harbiy asirlarga murojaat qilib, odatda shunday deyishardi: “Hey, avstriyalik”” [15, 205]. Ammo harbiy asirlar orasida avstriyaliklar deyarli yo‘q edi (u asirlikda bo‘lgan joyda – muallif), lekin ruslar Avstriyadan nafratlanardilar, natijada, slavyan harbiy asirlari boshqalarga nisbatan ko‘proq hurmatga ega edilar. Gannning ta’kidlashicha, Avstriya-Vengriya armiyasidagi slavyan askarlarining aksariyati ruslarga qarshi urushda ixtiyoriy ravishda taslim bo‘lishga harakat qilishgan, chunki anti-Rossiya rasmiy tashviqotiga qaramay, ularning aksariyati rusparast edilar [15, 205]. Bundan ayon bo‘ladiki, “slavofilizm [23, 129–135]” tufayli ko‘plab chexlar va slovaklar ruslarga ixtiyoriy ravishda taslim bo‘lganliklari aniq. Jang maydonlaridagi o‘limdan qutulgan harbiy asirlarning qismati umidsizlik, chuqur siyosiy beparvolik bilan almashtirildi. Achinarlisi shundaki, rus zobitlari va quyi martabali amaldorlar harbiy asirlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilishda har doim ham ularning huquqlarini hisobga olmagan. Bu Rossiyada, ayniqsa, urush yillarida, pan-slavyan targ‘iboti faol ravishda kuchaygan davrda harbiy asirlarga nisbatan amalga oshirilgan. Shunday qilib, yoqimsiz ko‘rinsa-da, “sen, avstriyalik, yoki “begona” deyishlar ularni tahqirlash kabi yangraganligi ayni haqiqat. “Qadrli o‘rtoqlar” xitobi ularning o‘zlarinikiga aylanganidan dalolat berardi. “... bir kunda, ko‘pchiligimiz Qizil gvardiya safiga kirdik [15, 205]” deb, – eslaydi Sh. Gann.

Mavjud tartib-qoidalarga binoan, zobitlar xonasiga ruxsatsiz kiritilmasdi, lekin amalda ushbu qoida ko‘pincha buzilgan. Masalan, Perovskda qochoq pasportiga ega bo‘lgan Mariya Goxovskaya Avstriya-Vengriya fuqarosi bo‘lgan turmush o‘rtog‘i bilan birga lagerda yashaganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Perovskda yashab, u keyinchalik Yekaterinoslavga jo‘nab ketadi. Yana bir harbiy asirning xotini Anna Pogorskayaga turmush o‘rtog‘i bilan asirlikda Turkistonda yashashiga ruxsat berilgan. Pogorskaya eri bilan alohida yashash uchun imkoniyat qidirib, xonadon ham topgan. Turkiston general-gubernatori bu masalani hal qilishni Pogorskiy joylashgan lagerning harbiy ma’murlari ixtiyoriga qoldirdi. Qarorga ko‘ra, xonadonning ijara puli ijobiy hal qilingan taqdirdagina Pogorskiy va uning turmush o‘rtog‘i birgalikda yashashlari uchun ruxsat berilgan [11, 132].

Turkiston harbiy lagerlarida harbiy asirlarning vijdon erkinligi ta’minlangandi. Harbiy asirlar turli xil dinlarga yoki bir dinning boshqa-boshqa mazhablariga e’tiqod qilganlarliklari

tufayli har bir askarning sig‘inishidan kelib chiqib, ularning urf-odatlarini va turli diniy marosimlarini o‘tashlari uchun sharoitlar yaratib berilgan. Bu kabilarni ado etishlarida ularga ruhoniylar yordam berganlar. Harbiy asir vafot etganda unga nisbatan insoniy munosabatda bo‘linib, marhumning urf-odatlariga ko‘ra dafn etilgan. Shaharlar tashqarisida harbiy asirlar uchun alohida qabristonlar ajratib berilgan. Qabristonlar to‘rtburchak ko‘rinishida simli to‘siqlar bilan himoyalangan. F.Villfortning ta’kidlashicha, Farg‘onadagi harbiy asirlar qabristonida 1916-yilning 2-noyabrida vafot etganlar sharafiga panixida [22, 427–428] o‘tkazilgan. Unda 800 nafardan ortiq odamlar (300 ga yaqini harbiy asirlar – muallif) qatnashgan. Diviziya [24, 55] pastori [27, 11] Frantning hamdardlik nutqida begona yurtdagida ushbu qabristonda 2000 nafardan ortiq askar va zobit asirlarning qabrlari borligi aytib o‘tilganligi F.Villfortning kundaligidan o‘rin olgan [17, 101]. U yerda vafot etganlar uchun yodgorlik ramzi ham bo‘lib, unda lotin tilida yozilgan “Non omnes moriuntur, qui patriae omnia dedere” so‘zlari bitilgan edi. Bu yodgorlikdagi yozuvlar “O‘z vatani uchun borini berganlar hech qachon o‘lmaydi”, degan ma’noni anglatgan. Hattoki, Avstriya-Vengriya imperatori Frans Iosifning tug‘ilgan kunini tantanali nishonlashga ijozat ham berilgan. Shuningdek, Frans Iosif vafoti munosabati bilan Jizzax lagerida motam e’lon qilingan [29, 69–81]. Bu kabi holatlardan shuni bilish mumkinki, harbiy lagerlarda asirlarning urf-odatlarini va qadriyatlarini ham hisobga olingan va ularga bu borada sharoitlar yaratib berilgan. Bu kabi diniy bag‘rikenglik ishlari Germaniya harbiy lagerlarida ham yo‘lga qo‘yilgan edi. Olmon yurtidagi musulmon harbiy asirlar uchun Ramazon, Qurbon hayitlarini nishonlashlariga yo‘l qo‘yib berilgan [16, 97]. Shuningdek, musulmon harbiy asirlarga juma, yakshanba va islom olamidagi bayram kunlari – Ramazon va Qurbon hayiti kunlari, Yangi yil kuni, Ashura kuni hamda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) tavallud topgan kunlarida dam olib, hordiq chiqarishlariga va ibodatlarini qilishlariga ham ruxsat etilgan [16, 102]. Hattoki, 1915-yil 13-iyulda Ramazon oyining birinchi kuniga moslab Germaniyadagi Vyunsdorf harbiy lagerida musulmon harbiy asirlar uchun masjid qurilishi yakunlanib, foydalanishga topshirilgan [16, 147–148]. Bundan ko‘rinib turibdiki, harbiy asir qaysi hududda bo‘lishidan qat’iy nazar, xoh Germaniyada, xoh Rossiya Turkistonida bo‘lsin, uning diniy e’tiqodi va qadriyatlarini hurmat qilinib, Gaaga konvensiya talablarini buzmaganda holda shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Harbiy asirlarning kiyinishida qattiq tartib o‘rnatilgan edi. Tutqundagi askarlar chap qo‘lida “VP” (voennoplenny - muallif) – harbiy asir deb yozilgan sariq rangli formada yurishgan [4, 92]. General M.M. Manakinning hisobotida harbiy asirlarning tashqi ko‘rinishiga oid dalillarga ko‘proq to‘xtalangan. Unga ko‘ra, zobitlar fuqaroviy kiyim kiyishlari mumkin edi [11, 136]. Bu esa zobitlarga shahar bo‘ylab o‘zlariga diqqatni tortmasdan erkin harakatlanishiga imkon bergan. Ammo hamma o‘zining kiyim-kechagini shikast yetmagan holda saqlay olmagan. Zobitlarni osiyocha kiyimlarni sotib olishi taqiqlangan, ular ana shu kiyimlar bilan qochib ketishlari imkoniyatlari ancha osonlashishi bunga sabab qilib keltirilgan. Ta’kidlash joizki, avstriyaliklar harbiy kiyimi Turkiston o‘lkasi tog‘laridagi qishki sovuqlarga yetarlicha darajada

bardosh berishga to‘sqinlik qilardi. Nihoyat, 1919-yilga kelib harbiy asirlar endi maxsus forma kiymay qo‘ydilar va ularning hammasi fuqarolik kiyimida yurardilar [11, 136].

Harbiy asirlar, agar asirga oluvchi davlat qonunlari ruxsat bersa, shartli ravishda ozod bo‘lishlari mumkin edi. Bunda o‘sha davlatdagi mehnat faoliyatiga jalb qilinsa, uni ado etishi kerak bo‘lgan. Lekin biror bir o‘z kasbining ustasi bo‘lgan harbiy asirga, siyosiy va iqtisodiy maqsadlarda foydalanish uchun zarur bo‘lib qolgan taqdirda, majburan shartli ozodlik berish taqiqlangan.

Urushayotgan davlat g‘anim davlat hududida o‘z harbiy asirlaridan boxabar bo‘lib turish uchun o‘z byurolarini ochishi mumkin edi. Ular kasalxonadagi, turli mehnat obyektlaridagi vafot etgan harbiy asirlar tarkibini yuritib borganlar va bu haqda harbiy asirlarning oila a‘zolariga xabar yetkazib turganlar. Shuningdek, harbiy asirlarga o‘z davlatlari tomonidan jo‘natilayotgan gumanitar yordamlarning tutqundagilarga yetkazilishi ustidan nazoratni olib borgan. Harbiy asirlarga kelayotgan jo‘natmalar har qanday davlat bojlari va qo‘shimcha to‘lovlardan ozod qilingan [19, 45].

1917-yil Fevral voqealaridan keyin Turkistonda harbiy asirlar uchun lager tartibi yanada yengillashdi. Natijada, mahbuslar ma‘lum bir ishlarda erkinliklarga ega bo‘ldilar, ya‘ni ular kunduz kunlari lagerlarni tark etish, o‘zlarining shaxsiy kiyimlarini kiyish, ko‘chalarda erkin yurish, mahalliy aholi bilan munosabat o‘rnatish kabi imkoniyatlarni qo‘lga kiritdilar. Ayniqsa, Toshkent ko‘chalari mahbuslarning borligi sezilib turardi. Angliyalik zobit Frederik M.Beyli diplomatik missiyasi 1918-yilning avgust oyida Turkiston o‘lkasiga kelganda, harbiy lagerlarda avstriyaliklar ko‘pchilikni tashkil etishini va ular bosh kiyimlariga F.J.I. (Franz Joseph I – Frans Iosif I) yozuvi tushirilgan kokarda [24, 155] taqib yurganliklarini o‘z kitobida qayd etib ketgan [11, 125]. Bundan ayon bo‘ladiki, lager tartiboti yengillashgandan so‘ng harbiy asirlarga o‘zlarining shaxsiy kiyimlarida hattoki o‘z milliy belgilarini aks ettirishga ham ruxsat berilgan.

Harbiy asirlarning millati tutqunlik yillarida muhim rol o‘ynagan. Dastlab, slavyanlar, keyinchalik italyanlar va ruminlar ham imtiyozlarga ega bo‘lishgan. Ularning imtiyozlari Yevropa Rossiyasida asirlikda bo‘lish, ko‘proq erkinlik va yaxshiroq turar joyga ega bo‘lish bo‘lgan. Bunda, hattoki, urush harakatlarida qatnashayotgan dushman armiyasi askarlarining o‘z yurtlarini himoya qilmay Rossiyaning bu kabi harbiy lagerlariga qochib kelishlari va keyinchalik, ruslar tomonida turib o‘z vatanlariga qarshi kurashishlari ham ko‘zda tutilgan edi. Jumladan, Chexoslovakiya legioni va Serbiya ko‘ngillilar korpusi kabi harbiy asirlar jamoalari Rossiya hamda uning ittifoqchilari tomonidan janglarga qo‘shildilar [2, 46; 7, 109]. 1917-yilda maxsus komissiyaning qarori bilan shifokor harbiy asirlardan chex, serb, fransuz, italyan, rumin millatiga mansub harbiylarga ta‘tilga chiqish huquqi ham berildi [3, 81–82]. Ta‘kidlash joizki, 1917-yil 22-iyunda maxsus komissiya harbiy asirlarning rus qizlari bilan nikoh qurishlariga ruxsat etuvchi hujjatni muhokama qildi va bunga izn berdi [5, 106]. Shunday qilib, turli xalqlar o‘rtasida assimilyatsiya [28, 110] jarayonlari kuchaydi. Buning isboti sifatida hozirgi kunda ham

O‘zbekistonda kam sonli bo‘lsa ham rusiyazonlashgan avstriyalik, venger, nemis, polyak, chex va slovak kabi millatlarga mansub fuqarolarni uchratish mumkin.

Rossiyada hokimiyatning navbatdagi o‘zgarishidan so‘ng, 1917-yil oktyabr oyida harbiy asirlar milliy va diniy yoki fuqarolik ishlari bo‘yicha mahalliy komissarliklarning yurisdiksiyasi ixtiyoriga o‘tkazildi. 1917-yil dekabrda ularga teng huquqlar berildi. O‘z xohishlariga ko‘ra lagerlarni tark etib, xususiy xonadonlarda erkin yashashlariga ruxsat berildi [12, 63–68]. Biroq, harbiy asirlar lagerdan tashqarida oziq-ovqat bilan bog‘liq muammolarga duch kela boshladilar. Tekin ta‘minot yo‘qligi tufayli endi ular o‘zlariga ish qidirishga majbur edilar. Harbiy asirlarni lager tartibotidan ozod qilish Rossiya va uning o‘lkalari iqtisodiyotiga ham ijobiy natijalar olib kelishi kerak edi. Sababi, 1914-yildan beri harbiy asirlar ta‘minoti Rossiya gardaniga tushib kelayotgan va iqtisodiy tanazzulga sabab bo‘layotgan edi.

XULOSA.

Tahlilga tortilganlarni xulosa qilinar ekan, Birinchi jahon urushining boshlarida Rossiya davlati tomonidan xalqaro huquq va xalqaro normalarning ochiq-oydin buzilishiga guvoh bo‘linadi. Dastavval, Rossiya imperiyasida ham Gaaga konvensiyasi andozasidagidek Nizom ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uning ayrim bndlari ruslarning ta‘sir doirasi va manfaatlaridan kelib chiqib ishlangan edi. Buning natijasida Rossiyaning turli o‘lkalaridagi, xususan Turkistondagi harbiy asirlarning umumiy ahvoli unchalik darajada ijobiy bo‘lmaganligini payqash mumkin. Oziq-ovqat va dori-darmonlarning taqchilligi, iqlim sharoiti, zarur miqdordagi ishchi kuchining yetishmasligi, harbiy lagerlarning markazlardan uzoqligi va mamlakatning iqtisodiy inqirozi kabi muammolar harbiy asirlarni ham chetlab o‘tmadi.

Demak, Turkiston harbiy lagerlaridagi harbiy asirlar holati rasmiy xalqaro huquqiy normalar, Rossiya imperiyasining harbiy-ma‘muriy manfaatlari va mahalliy sharoitlar kesishmasida shakllangan. Bir tomondan, asirlarning ro‘yxatga olinishi, diniy marosimlarni ado etishi, shaxsiy buyumlarini saqlashi va ayrim hollarda erkin harakatlanishiga ruxsat berilishi huquqiy tartibot mavjudligini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan esa, etnik kelib chiqishga qarab tabaqalashtirish, slavyan asirlariga imtiyozlar berish, oziq-ovqat va kiyim-kechak taqchilligi hamda qattiq lager intizomi xalqaro me‘yorlarning amaliyotda to‘liq bajarilmaganidan dalolat beradi.

1917-yilgi inqilobiy voqealardan keyin lager rejimining yumshashi harbiy asirlarning mahalliy jamiyat bilan aloqalarini kuchaytirdi, biroq ularning moddiy ta‘minoti va ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq muammolarni to‘liq bartaraf etmadi. Shu bois Turkistondagi harbiy asirlar masalasi nafaqat harbiy tarix, balki huquq tarixi, ijtimoiy tarix va mustamlakachilik boshqaruvi tarixini o‘rganishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 435-fond, 1-ro‘yxat, 90-yig‘ma jild, 88-varaq. (Fergana Regional State Archive, fond 435, inventory 1, file 90, folio 88.)

2. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-738-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild, 46-varaq. (National Archive of Uzbekistan, fond I-738, inventory 1, file 3, folio 46.)
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-738-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild, 81–82-varaqlar. (National Archive of Uzbekistan, fond I-738, inventory 1, file 3, folios 81–82.)
4. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-738-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild, 92-varaq. (National Archive of Uzbekistan, fond I-738, inventory 1, file 3, folio 92.)
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-738-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild, 106-varaq. (National Archive of Uzbekistan, fond I-738, inventory 1, file 3, folio 106.)
6. Toshkent viloyat davlat arxivi, 1-fond, 1-ro‘yxat, 46-yig‘ma jild, 5-varaq. (Tashkent Regional State Archive, fond 1, inventory 1, file 46, folio 5.)
7. Toshkent viloyati davlat arxivi, 10-fond, 13-ro‘yxat, 37-yig‘ma jild, 109-varaq. (Tashkent Regional State Archive, fond 10, inventory 13, file 37, folio 109.)
8. Hague convention (IV) respecting the Laws and Customs of war on land and its annex: Regulations concerning the Laws and Customs of war on land. – The Hague, 18 October 1907.
9. Положение о военнопленных Россия. Военные уставы и наставления. – Санкт-Петербург, 1914.
10. Базанов С. Изменники Родины или патриоты? // История – первое сентября. – 2013. – № 7/8. – С. 10–16. (Bazanov, S. Traitors to the Motherland or Patriots? Istoriya – Pervoe sentyabrya, no. 7/8, 2013, pp. 10–16.)
11. Бейли Ф.М. Миссия в Ташкент. – Москва: Языки славянской культуры, 2013. (Bailey, F.M. Mission to Tashkent. Moscow: Languages of Slavic Culture, 2013.)
12. Белова И.Б. Военнопленные центральных держав и советская действительность // Военно-исторический журнал. – 2014. – № 1. – С. 63–68. (Belova, I.B. Prisoners of War of the Central Powers and Soviet Reality. Voenno-istoricheskii zhurnal, no. 1, 2014, pp. 63–68.)
13. Brändström Elsa. Unter Kriegsgefangenen in Rußland und Sibirien 1914–1920. – Berlin, 1922. (Brändström, Elsa. Among Prisoners of War in Russia and Siberia, 1914–1920. Berlin, 1922.)
14. Васильева С.Н. Военнопленные Германии, Австро-Венгрии и России в годы Первой мировой войны: автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Москва, 1997. (Vasilyeva, S.N. Prisoners of War of Germany, Austria-Hungary and Russia during the First World War. Abstract of Candidate Dissertation. Moscow, 1997.)
15. Ганн Ш. Мы дрались за Ташкент // Былые походы: Воспоминания словацких красноармейцев – участников Великой Октябрьской социалистической революции и Гражданской войны в СССР. – Москва: Воениздат, 1961. – С. 205. (Gann, Sh. We Fought for Tashkent. In Bygone Campaigns: Memoirs of Slovak Red Army Soldiers. Moscow: Voenizdat, 1961, p. 205.)
16. Гилязов И., Гатауллина Л.Р. Российские солдаты-мусульмане в германском плену в годы Первой мировой войны (1914–1920). – Казань: Татарское книжное

издательство, 2014. (Gilyazov, I.; Gataullina, L.R. Russian Muslim Soldiers in German Captivity during the First World War, 1914–1920. Kazan: Tatar Book Publishing House, 2014.)

17. Голендер Б.А. Немецкий след в Узбекистане XV–XX веков. – Ташкент: Navro‘z, 2019. (Golender, B.A. The German Trace in Uzbekistan, 15th–20th Centuries. Tashkent: Navro‘z, 2019.)

18. Киреева Ю.В. Условия содержания немецких и австро-венгерских военнопленных на территории Туркестанского военного округа (1914–1917 гг.) // Военная история. – Саратов: Саратовский военный институт ВВ МВД РФ, 2006. – № 5 (23). – С. 199. (Kireeva, Yu.V. Conditions of Detention of German and Austro-Hungarian Prisoners of War in the Turkestan Military District, 1914–1917. Voennaya istoriya, no. 5 (23), 2006, p. 199.)

19. Котюкова Т.В. “Утомленные солнцем...”: Особенности пребывания и содержания австро-венгерских и германских военнопленных в Туркестане в годы Первой мировой войны // O‘zbekiston tarixi. – 2018. – № 4. – В. 45. (Kotyukova, T.V. “Weary of the Sun...”: Peculiarities of the Stay and Treatment of Austro-Hungarian and German Prisoners of War in Turkestan during the First World War. O‘zbekiston tarixi, no. 4, 2018, p. 45.)

20. Крючков И.В. Военнопленные Австро-Венгрии, Германии и Османской империи на территории Ставропольской губернии в годы Первой мировой войны. – Ставрополь: ПГЛУ, 2006. (Kryuchkov, I.V. Prisoners of War of Austria-Hungary, Germany and the Ottoman Empire in Stavropol Province during the First World War. Stavropol: PGLU, 2006.)

21. Кутявина М.Н., Маньковский И.Ю. Правовое положение военнопленных на территории Российского государства в период Первой мировой войны // Наука и Современность. – 2016. – № 46. – С. 152–157. (Kutyavina, M.N.; Mankovsky, I.Yu. Legal Status of Prisoners of War on the Territory of the Russian State during the First World War. Nauka i Sovremennost, no. 46, 2016, pp. 152–157.)

22. Лукашевич А.А. Панихида // Православная энциклопедия. Т. 54: Павел — Пасхальная хроника. – Москва, 2019. – С. 427–428. (Lukashevich, A.A. Panikhida. In Orthodox Encyclopedia, vol. 54. Moscow, 2019, pp. 427–428.)

23. Митрошенков А.О. Философия славянофилов в современных российских исследованиях // Вестник РУДН. Серия: Философия. – 2003. – № 1 (9). – С. 129–135. (Mitroshenkov, A.O. The Philosophy of Slavophiles in Modern Russian Studies. RUDN Journal of Philosophy, no. 1 (9), 2003, pp. 129–135.)

24. Samarov R., Alimov A. va boshq. Harbiy atamalarining yangi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. (Samarov, R.; Alimov, A. et al. New Explanatory Dictionary of Military Terms. Tashkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.)

25. Шлейхер И.И. Пленные стран Четверного союза в Сибири: некоторые вопросы транспортировки и содержания в лагерях // Военно-исторические исследования в Поволжье: сб. науч. трудов. – Саратов: Научная книга, 2005. – Вып. 6. – С. 79. (Shleykher,

I.I. Prisoners of the Quadruple Alliance in Siberia: Some Issues of Transportation and Camp Detention. Saratov: Nauchnaya kniga, 2005, issue 6, p. 79.)

26. Щеров И.П. Центропленбеж в России: история создания и деятельность в 1918–1922 гг. – Смоленск: СГПУ, 2000. (Shcherov, I.P. Tsentroplenbezh in Russia: History of Creation and Activity in 1918–1922. Smolensk: SGPU, 2000.)

27. Willfort Fritz. Turkestanisches Tagebuch: Sechs Jahre in Russisch Zentral Asien. – Vienna and Leipzig: Wilhelm Braumüller, 1930. (Willfort, Fritz. Turkestan Diary: Six Years in Russian Central Asia. Vienna and Leipzig: Wilhelm Braumüller, 1930.)